Advances in Science and Sustainability

Advances in Science and Sustainability, 2025, 12–16

doi: 10.70728/susta.v01.i12.003
Volume 01, Issue 12
ISSN: 3060-5407
Paper

PAPER

XORIJIY INVESTORLARGA JOZIBADOR MUXIT YARATISH VA MILLIY IQTISODIYET BARQARORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Baxodirova Oqila [1,*]

[1]Toshkent Davlat iqtisodiyet universiteti magistranti

* baxodirova@gmail.com

Abstract

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning dolzarbligi, mavjud imkoniyatlar, muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar keng yoritilgan. Xususan, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, soddalashtirilgan soliq tizimi, investorlarga berilayotgan huquqiy kafolatlar va preferensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga investitsiyalarni yanada ko'proq jalb etish yo'llari, xususan davlat-xususiy sheriklik (DXX) mexanizmlari, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va yashil energetika sohalaridagi imkoniyatlar o'rganilgan. Maqolada xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va ishonchli huquqiy tizimni shakllantirish bo'yicha samarali takliflar ilgari surilgan.

Key words: Xorijiy investitsiya, investitsion muxit, xalqaro tajriba, infratuzilma rivojlanishi, raqamli iqtisodiyot, yashil energetika, davlat-xususiy sheriklik, preferensiya, byurokratik to'siqlar.

Kirish

Xozirgi iqtisodiy globallashuv sharoitida xorijiy investitsyalar xar bir davlat iqtisodiyeti uchun muxim axamiyat kasb etadi.Investitsyalar yangi ish o'rinlarini yaratishda,texnologik moderinizatsiyani jadallashtirishda, mamlakat ichida iqtisodiyet,talim,sanoat va barcha soxalarni gullab yashnashida yangi eshiklarni ochadi.Buning natijasida, bozorda taklif ko'payadi,narxlar arzonlashadi,tanlov imkoniyati ko'payadi va asosiysi axoling turmush tarzi yaxshilanadi.Albatta o'z-o'zidan bu jarayen shu zaylda davom etsa,mamlakatni eksport saloxiyati oshadi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni katta bosqichga olib chiqishiga imkoniyat yaratiladi. So'ngi yillarda yurtboshimiz mamlakatimizda investitsiyalar oqimiga katta etibor qaratib kelmoqdalar.Xususan:

-2019-yilda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, yirik infratuzilma

Compiled on: January 8, 2026.
Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Sustainability for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

loyihalarida xususiy sektor ishtirokini ta'minlash yo'lga qo'yildi;

-2023-yilda Prezidentning PF–5635-sonli farmoni asosida investitsiya siyosati takomillashtirilib, sarmoyadorlar uchun huquqiy kafolatlar mustahkamlandi (Farmon, 2023);

-2024-yilda "Investitsiya dasturi" doirasida 2 000 dan ortiq loyiha amalga oshirildi, ularning umumiy qiymati 18 mlrd AQSH dollaridan oshdi (Investitsiya, 2024).

O'zbekistonga kirib kelayetgan investitstyalar xajmini oshirish uchun yana nimalar qilinishi kerak:

- **Birinchidan** Investitsion muhitni yanada yaxshilash. Bu, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, investorlarga qulay sharoitlar yaratish, qonunchilik bazasini takomillashtirish va investitsion risklarni kamaytirishni nazarda tutadi.

- **Ikkinchidan** Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish. Bu, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda marketing tadbirlarini o'tkazish va investorlar bilan faol muloqot qilishni talab etadi.

- **Uchinchidan** Ichki investitsiyalarni rag'batlantirish. Bu, mahalliy tadbirkorlarga qo'llab quvvatlash ko'rsatish, ularning investitsion faolligini oshirish va ichki resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashni anglatadi.

- **To'rtinchidan** Investitsiya yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish. Bu, investitsiyalarni faqatgina an'anaviy tarmoqlarga emas, balki innovatsion va istiqbolli yo'nalishlarga ham jalb qilishni nazarda tutadi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish. Bu, investitsiya loyihalarini sifatli ishlab chiqish, ularning monitoringini olib borish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashni talab etadi.

Xar bir sarmoya kiritmoqchi bo'lgan investor asosan yuqoridagi jixatlarni borligini sinchiklab ko'rib chiqadi.Sababi,bu kiritilgan sarmoya kelajakda o'zini oqlaydimi yo'qmi degan o'rinli savollarga javob beradi.Istisno tariqasida aytadigan bo'lsak,qaysi bir mamlakat katta investititsya kiritishni maqsad qilgan bo'lsa,ortiqcha qogozbozliklardan vos kechishi va xalqaro aloqalar va qo'shnichilikni yaxshi rivojlantirsa eng asosiysi maqsadli start ap loyixalarga sarmoya kiritib qo'llab-quvvatlasagina maqsadga erishish bir muncha oson va tezroq bo'ladi.Yani bugungi kunda yurtboshimiz baralla yashil energetikaga o'tish va atrof muxitni muxofaza qilish borasida katta islaxotlarni amalga oshirib kelmoqdalar va shu bilan birgalikda katta loyixalar o'z natijasini bermoqda.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar xorijiy sarmoyaning milliy iqtisodiy o'sishga, texnologik yangilanishga va eksport salohiyatini oshirishga qo'shayotgan hissasini tahlil etishga qaratilgan.

Mahalliy olimlardan To'raqulov va Qodirova (2024) o'z izlanishlarida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda zamonaviy mexanizmlar — xususan, raqamlashtirilgan "bir darcha" tizimini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sektor ulushini oshirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish zarurligini asoslab bergan. Ularning fikricha, investorlar uchun huquqiy barqarorlik va shaffof soliq siyosati eng muhim omillar hisoblanadi. Karimov (2023) tadqiqotlarida institutsional islohotlarning xorijiy sarmoyani rag'batlantirishdagi rolini chuqur tahlil qilgan. Muallif investitsion muhitni yaxshilash uchun "tartibga solish islohotlari" va soliq preferensiyalarining uzviy bog'liqligini asoslagan, shuningdek, mintaqaviy investitsion markazlar faoliyatini kuchaytirish zarurligini taklif etgan.

Anvarovich (2023) o'zining "Key factors attracting foreign investment to Uzbekistan" nomli ilmiy ishida O'zbekistonda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qiladi. Tadqiqotda tabiiy resurslar salohiyati, soliqqa oid islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik va mehnat resurslarining arzonligi asosiy ustunliklar sifatida qayd etiladi. Muallif investitsion muhitni yaxshilash uchun huquqiy barqarorlik, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishini taklif qiladi. Shuningdek, sarmoyadorlar uchun kafolatli himoya tizimini kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Abduxamidov (2023) o'zining "Methods of developing foreign direct investments to our country and the strategic directions" nomli tadqiqot ishida O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rivojlantirishning

nazariy va amaliy yo'nalishlarini yoritadi. Muallif investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun erkin iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari hamda byurokratik to'siqlarni kamaytirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda xorijiy investorlar uchun kafolatlar tizimini mustahkamlash va sarmoya jarayonlarini raqamlashtirish taklif etilgan. Xulosa qilib, O'zbekiston uchun eng muhim vazifa sarmoya muhitining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash ekani qayd etiladi.

Berdiyarov va hammualliflar (2024) o'zining "The impact of foreign investment and tax based governance on the economy of Uzbekistan" nomli tadqiqot ishida xorijiy investitsiyalar va soliq siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik tahlil qiladi. Tadqiqotda 2020–2024-yillar oralig'idagi panel ma'lumotlardan foydalanilib, FDI oqimining iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'siri aniqlangan. Mualliflar soliqqa oid rag'batlar va imtiyozlar xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishda muhim o'rin tutishini ko'rsatgan. Xulosa sifatida, investitsiya siyosatida soliq boshqaruvini soddalashtirish va shaffoflikni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi. Kadirov (2024) o'z maqolasida soliq va bojxona preferensiyalarining xorijiy sarmoyadorlar uchun ahamiyatini tahlil qilib, imtiyozli soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali investitsion oqimlarni oshirish mumkinligini asoslagan.

Yusupova (2024) xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda investitsion siyosatni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib, Janubiy Koreya va Polsha tajribasiga asoslangan "raqamli ruxsatnoma tizimi"ni milliy amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar bergan.

Islomov o'z ilmiy ishida davlat-xususiy sheriklik (DXX) mexanizmlarining xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi o'rnini tahlil qilgan. U DXX loyihalari nafaqat infratuzilmani rivojlantirish, balki innovatsion texnologiyalarni mamlakatga olib kirishda ham muhim vosita bo'lishini ko'rsatadi (Pulaev, 2023).

Porter esa "Competitive Advantage of Nations" asarida milliy iqtisodiyotda raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy drayveri ekanini ta'kidlaydi(Yusupova, 2024).

UNCTAD (2024) "World Investment Report"ida O'zbekistonning investitsion iqlimi Markaziy Osiyoda eng tez o'suvchi bozor sifatida e'tirof etilgan. Jahon banki va OECD (2023) (hisobotlarida esa mamlakatda institutsional islohotlar natijasida investorlar uchun barqaror va ochiq tizim shakllanayotgani qayd etilgan, biroq huquqiy shaffoflikni yanada oshirish zarurligi ta'kidlanadi. IMF esa O'zbekistonda xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirishda makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash masalasiga e'tibor qaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini xorijiy tajribalar asosida o'rganish va ularni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Metodologiya asosan tizimli tahlil tamoyiliga asoslanib, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni birgalikda o'rganishga qaratildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida rivojlangan davlatlarda innovatsion-investitsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlari milliy sharoit bilan taqqoslanib, samarali yo'nalishlar ajratib olindi. Statistik tahlil usuli orqali O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion-investitsion faoliyat ko'rsatkichlari, investitsiya oqimlari, startaplarni qo'llab-quvvatlash darajasi hamda ilmiy tadqiqot ishlari uchun yo'naltirilayotgan mablag'lar o'rganildi. Ushbu ko'rsatkichlarni xalqaro amaliyotdagi ma'lumotlar bilan solishtirish milliy iqtisodiyotdagi ustuvorliklarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda shuningdek ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, xorijiy tajribalar umumlashtirildi va ular asosida milliy sharoitga mos konseptual takliflar ishlab chiqildi. Metodologiyaning nazariy manbalari sifatida xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari hamda hukumat hujjatlari tahlil qilindi. Shu asosda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiy o'stshning eng oqilona yo'li sifatida investitsya jalb qilish, ustuvor yo'nalish etib belgilandi. Bugungi kunga kelib uning xajmi yanada ortganiga guvox bo'lishimiz mumkin.Investitsiya xajmi ortkani sari mamlakat rivojlanish va o'sish

tomon yanada yaqinlashganini xis qilishimiz mumkin.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasiga jalb qilingan investitsiyalar xajmi.

Yillar	Soxalar	Xorijiy investitsiyalar (mlrd.$)	Yillik o‘sishi (%)
2023	Energiya,sanoat, transport	10.5	+18%
2024	Sanoat,IT,qishloq xo‘jaligi	12.3	+17.1

Rivojlangan mamlakatlar tajribvsidan olib qaraydigan bo'lsak,deyarli barchasi chetdan keladigan investitsiyalar xisobiga barcha soxalarni rivodlantirishda dinamikaga keltirganligini ko'rishimiz mumkin.

Bunga misol qilib,quyidagi jadvalda so'ngi ikki yillik o'sish tendensiyasini ko'rishingiz mumkin.

2022-yil COVID-19 ga barxam berilgandan keyin 2023- yil xorijiy investitsiyalar uchun o'z eshigini ochdi.Buning natijasida erkin iqtisodiy zonalar,soddalashtirilgan litsenziya tizimlari, sanoatga katta etibor qaratishga turtki bo'ldi.

2. Tarmoqlar kesimida xorijiy investitsiyalar tuzilmasi Quyidagi jadvalda 2023–2024-yillar davomida tarmoqlar bo'yicha xorijiy investitsiyalar taqsimoti keltirilgan.

2- jadval

Tarmoqlar kesimida investitsiyalar xajmi (mlrd.$)

Yillar	Sanoat	Energetika	Qishloq xo‘jaligi	IT va xizmatlar
2023	4.2	3.5	1.2	1.1
2024	5.0	4.1	1.5	1.7

Taxlil natijalari shuni ko'rsatadiki,so'ngi yillarda eng ko'p investitsiya kiritilgan soxa bu IT va raqamli texnologiyalardir. Albatta taabir joizki, yurtboshimiz raqamli texnologiya soxasiga katta etibor qaratib kelmoqdalar. Shuningdek,2024-yilda kiritilgan investitsiyalarning 54% ini egallaydi. Asosiy investor mamlakatlar - Xitoy – 32% - Rossiya – 21% - Koreya Respublikasi – 11 - Turkiya – 9% - Germaniya – 7% Bu davlatlarning ulushi, asosan, energetika, kimyo, avtomobilsozlik, to'qimachilik va axborot texnologiyalari tarmoqlarida yuqori bo'lib, ular bilan ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Hududlar kesimida eng ko'p xorijiy investitsiyalar Toshkent shahri, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Bunda sanoat klasterlari, erkin iqtisodiy zonalar va qulay transport-logistika infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. 3. Xalqaro tajriba tahlili Xalqaro amaliyot xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish uchun erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), raqamli ruxsatnoma mexanizmlarining muhimligini tasdiqlaydi. - Janubiy Koreya tajribasida “Incheon Free Economic Zone” tashkil etilgach, 10 yil ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2,3 baravar oshgan, natijada 1500 dan ortiq xorijiy kompaniya faoliyat boshlagan. - Polshada “Katowice SEZ” orqali investorlar uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish va infratuzilma imtiyozlari joriy etilishi 2010–2020-yillarda investitsiyalar hajmini 45% ga oshirgan. - Turkiya esa 2000-yillardan boshlab “Technopark”lar orqali innovatsion startaplarni xorijiy kapital yordamida rivojlantirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishgan. O'zbekiston ham bu tajribalardan samarali foydalanib, “Angren”, “Navoi” va “Urgut” erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirmoqda. Ushbu zonalarda xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, energiya resurslariga ustuvor kirish, yer ajratishning soddalashtirilgan tartibi va huquqiy kafolatlar yaratilgan. Bundan tashqari, BAA va Saudiya Arabistonining “Masdar” hamda “ACWA Power” kompaniyalari bilan amalga oshirilayotgan yashil energetika loyihalari (quyosh va shamol stansiyalari) xorijiy investitsiyalarni ekologik barqaror rivojlanish yo'nalishiga yo'naltirishda muhim o'rin tutmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,so'ngi yillardagi fiskal,bojxona,iqtisodiy,siyesiy o'zgarishlar mamlakatimizning investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun hal etilishi lozim bo'lgan qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda yer olish jarayonlarining murakkabligi, ma'muriy ruxsatnomalar uchun ortiqcha byurokratik to'siqlar, shuningdek, investitsion nizolarni hal qilish mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi investorlar ishonchini pasaytiruvchi omillar bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Huquqiy tizimni yanada takomillashtirish:

- Investorlarga nisbatan uzoq muddatli huquqiy kafolatlar beruvchi alohida “Investitsiyalar to'g'risida” kodeksni ishlab chiqish;

- Xorijiy investorlar uchun “arbitraj soddalashtirilgan tartibi”ni joriy etish orqali nizolarni tezkor hal qilish mexanizmini yaratish.

2. Raqamli boshqaruvni kengaytirish:

- Barcha investitsion ruxsatnomalar, yer ajratish, soliq imtiyozlari va monitoring jarayonlarini yagona raqamli platforma (“Invest Portal”) orqali yuritish;

- Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini onlayn kuzatuv tizimi orqali shaffoflashtirish.

- Mahalliy biznes subyektlarini xorijiy investorlar bilan qo‘shma korxona shaklida hamkorlikka jalb etish.

3.Inson kapitaliga sarmoya kiritish:

- Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda texnik kollejlar, startap-inkubatorlar va innovatsion markazlar tashkil etish;

- “Dual ta‘lim” tizimi orqali malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish. 4. Yashil energetika va raqamli iqtisodiyotga ustuvor e‘tibor:

- Masdar, ACWA Power kabi xalqaro kompaniyalar bilan “yashil loyihalar”ni ko‘paytirish

- Raqamli iqtisodiyot uchun xorijiy IT-park rezidentlariga soliq preferensiyalarini kengaytirish.

5. Xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish:

- OECD, Jahon banki, UNCTAD va Osiyo taraqqiyot banki bilan investitsion siyosat bo‘yicha strategik dasturlarni amalga oshirish;

- “Investitsion diplomatiya” mexanizmini kuchaytirish orqali yirik transmilliy kompaniyalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish. Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, texnologik modernizatsiyasi va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatda sarmoyadorlar uchun barqaror, shaffof va raqobatbardosh investitsion muhitni shakllantirish O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasining markazida bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.

2. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust, PF-5495-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300 sonli Qarori.

4. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 https://www.researchgate.net/publication/237244956

5. Mihaela Peres, Waqar Ameer Helian Xu (2018) The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries, Economic Research-Ekonomska Istraživanja, 31:1, 626-644, DOI: 10.1080/1331677X.2018.1438906 https://doi.org/10.1080/133167 7 X.2018.1438906

6. Andrianov V.D. Rossiya: ekonomicheskiy i investitsionnыy potensial. – M.: OAO “Izdatelstvo «Ekonomika”, 1999. - 662s.

7. Charayeva M.V. Finansovoye upravleniye realnыmi investitsiyami organizatsiy: uchebnoye posobiye / M.V. Charayeva. Moskva: Alfa-M, 2014. 240 s.